



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th August, 2025

RISHTON KULOLCHILIGIDA NAQSH VA USLUB

Yuldasheva Muslima Ma'murovna

Farg'ona davlat universiteti Jahon tarixi kafedrası tayanch doktoranti.

Telefon: 998 90 974 66 90, E-mail: m.yuldasheva87@mail.ru

УЗОР И СТИЛЬ РИШТАНСКОЙ КЕРАМИКИ

Юлдашева Муслима Маъмуровна

Докторант кафедры всемирной истории Феранского государственного университета. Телефон: 9989 90 974 66 90, E-mail: m.yuldasheva87@mail.ru

POTTERY AND STYLE IN RISHTAN POTTERY

Yuldasheva Muslima Ma'murovna

First year doctoral student of the World History Departament of Fergana State University. Phone: 9989 90 974 66 90, E-mail: m.yuldasheva87@mail.ru

Annotatsiya

Mazkur maqolada Farg'ona vodiysidagi Rishton kulolchilik maktabining an'analari, kulolchilik mahsulotlaridagi milliylik, naqsh hamda bo'yoqlarning turlari, bo'yoq olinadigan tabiiy o'siliklar haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, bugungi kunda Rishton kulolchiligining jahondagi salohiyati hamda mamlakatning iqtisodiy hayotidagi o'rni yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Rishton, an'ana, anor, bodom gul, naqsh, ishqor, islimiy.

Аннотация

В данной статье рассматривается Риштанская керамика Ферганской долины. Традиции школы, национальность, узоры и виды красок в гончарных изделиях, природные растения, из которых получают краску. Также севодняосвещен потенциал Риштанской керамики в мире и ее место в экономической жизн страны.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th August, 2025

Ключевые слова: Риштан, традиция, гранат, цветок миндаля, узор, щелочь, ислимий.

Abstract

In this article, Rishtan pottery in the Fergana Valley the traditions of the school, nationality, patterns and types of paints in pottery products, natural plants from which paint is obtained. Also, today the potential of Rishtan pottery in the world and its role in the economic life of the country are highlighted.

Keywords: Rishtan, tradition, pomegranate, almond flower, pattern, alkali, Islamic.

KIRISH:

O'zbek an'anaviy hunarmandchilik mahsulotlari asrlar davomida o'zining jozibadorligi hamda rang-barangligi bilan dunyo bozorlarida o'z o'rniga ega bo'lib kelgan. Xalqlar o'rtasidagi madaniy va savdo aloqalari orqali o'zbek an'anaviy hunarmandchiligi dunyo xalqlari e'tiborini tortib kelmoqda. Markaziy Osiyo an'anaviy madaniyatining ajralmas qismi hisoblangan kulolchilik uzoq vaqtdan buyon tadqiqotchilarning ham e'tiborida. Kulolchilik inson o'zlashtirgan hunarlardan eng qadimiylaridandir. Neolit davrining buyuk kashfiyoti bo'lmish sopol buyumlar yasash vaqt o'tgani sari takomillashib rivojlanib bordi. Dastlab zaruriy ehtiyoj sabab ya'ni mahsulotlarni saqlash uchun ishlangan sopol buyumlar eneolit davriga kelib kelib badiiy ahamiyat ham kasb eta boshladi. To'g'ri, dastlabki naqshlar sodda bezaklar va geometrik shakllar bo'lgan, biroq bu insoniyat estetikasining ilk ko'rinishi edi. Arxeologik materiallar naqshning jahondagi barcha xalqlarda qadimdan mavjud bo'lganligini ko'rsatadi.

“Naqsh” arabcha tasvir, gul ma'nolarini bildirib, muayyan tartibda bir maromda takrorlanishdan hosil bo'ladigan handasaviy shakllar, o'simlik, qush, hayvon va boshqalarning uslublashtirilgan tasvirlaridan tarkib topgan bezakdir.[1]. Naqsh turli o'lkalar, turli xalqlarda geografik muhit, o'simlik va hayvonot dunyosi, madaniyati ta'sirida turlicha rivoj topgan.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th August, 2025

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Hunarmandchilik sohasi doimo tadqiqotchilarning asosiy mavzularidan biridir. Boisi xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti shu sohaga bog'liqdir. Rishton kulolchiligi V. N. Razvadovskiy, M. Gavrilov, Ye. M. Pesherova, M. Rahimov S. Aliyeva, E. Gyul, L. Kodzayeva va boshqa tadqiqotchilar tomonidan ko'p marotaba o'rganilgan.

MUHOKAMA. Markaziy Osiyo kulolchiligida naqsh san'ati tasavvuf ilmining sultoni Bahovaddun Naqshbandiy bilan bog'lanadi. Bugungi kunga kelib Markaziy Osiyoda kulolchilik sohasi bo'yicha yetakchilik qilayotgan Rishton kulolchiligining rivojlanish tarixi, xalqaro miqyosda mashho'rlikka erishishi uning naqsh san'atiga ham bog'liqdir. Buyumlarga naqsh berish va sirlash kulolchilikning eng mas'uliyatli jarayoni hisoblanadi.

Bugungi kungacha shakllangan har bir kulolchilik maktabining o'ziga xos hamda farq qiluvchi jihatlari mavjud. Rishton kulolchilik maktabi uchun xos bo'lgan xususiyat idishlarni bezashda ko'k, moviy, yashil ranglarning keng qo'llanishidir. Rang borasida asosan feruza ranggi yetakchilik qiladi. Feruza fors tilida "firuza", "piruz" shaklida namoyon bo'lib, ma'nosi "g'alaba, g'olib", arablarda "firuzash" (g'oliblik) shaklida uchraydi. [2]. Amir Temur ham o'z bayrog'ining rangini aynan feruza rangda tanlangani ham bejiz emas. Bunday ranglardan foydalanishga sabab, qadimda ranglar faqat tabiiy usul bilan o'simliklardan olingan. Mazkur o'simliklardan ko'k, yashil, moviy, jigarrang kabi ranglar hosil bo'lgan. Shuningdek, Rishton kulolchiligida sirlash jarayonida ishqordan foydalaniladi. Keyingi davrlarda fan-texnika rivojlanishi munosabati bilan kimyoviy usul bilan har qanday rangli bo'yoqni hosil qilish imkoniyati paydo bo'ldi. [3].

O'zbekiston kulolchilik hunarmandchiligida sopol buyumlarga naqsh solishda uch xil usul bo'lib, birinchisi "chizma" yoki "harroj" deb ataladi. Bu usulda xom buyumga naqsh solinib bo'yaladi va sayqallanadi. Bu usul ko'proq Toshkent kulolchiligiga xos sanaladi. Ikkinchi usul bosma usuli bo'lib, u tayyor idish yoki buyumga andoza (shtamp) yordamida gul sepish hisoblanadi. Uchinchi usul gul solishning takomillashgan mo'yqalam bilan amalga oshiriladigan "qalami" usuli bo'lib, ko'proq Rishton, Shahrisabz, Samarand, Kattaqo'rg'on maktablarida qo'llaniladi.[4-92]. Naqsh solishdagi asosiy predmet mo'yqalam hisoblanadi.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th August, 2025

“Mo‘yqalam” forsiy so‘z bo‘lib, “mo‘y”- soch, yung ma‘nolarini beradi. [5]. Bunga sabab qalam tayyorlashda hayvon yungidan foydalaniladi. Rishtonda mo‘yqalam mayin bo‘lganligi sabab asosan echki yungidan tayyorlanadi. Chunki yungning yupqalik, noziklik darajasi muhim sanaladi. Qalin yung jipslashmaydi, suv shimmaydi natijada kerakli naqsh hosil bo‘lmaydi. Mo‘yqalamni tayyorlash uchun 10-15 sm tayoqchaga yung bog‘lanadi. Bunday mo‘yqalam tayyorlaydigan usta kulollardan Madg‘ozi usta edi. Endilikda uning ishini farzandlari davom ettirmoqda. Hozirda mo‘yqalam ustalari ham ko‘pchilikni tashkil etadi.

Bugungi kunda Rishton kulolchiligi uch xil yo‘nalishda ravnaq topib kelmoqda.

1. An‘anaviy
2. Noan‘anaviy
3. Zamonaviy

An‘anaviy kulolchilik bu qadim zamonlardan buyon davom etib kelayotgan, avlodlardan avlodga me‘ros bo‘lib kelayotgan qadriyatdir. An‘anaviy kulolchilik buyumarida xalqning turmush-tarzi, madaniyati, urf-odatlarini, o‘ziga xos qarashlari namoyon bo‘ladi. An‘anaviy uslubda tayyorlangan mahsulotlardan azaldan nafaqat yurtimiz balki, Yevropaliklarni ham hayratga solib kelgan. Chunki islmiy yo‘nalishdagi naqshlar butun borliqni, o‘simliklar dunyosini, tabiatni ijodkor usta qalb izhori orqali amaliy san’atda namoyon etadi. Bunday uslubdagi ijod mahsullari o‘z navbatida tomoshabin yoki muxlisni ijod mahsulini nafaqat ko‘rish, ko‘rish orqali his qilishni hamda ortga nazar tashlashga undaydi. Chunki, ming yillik islmiy naqshlarda aks etgan ko‘hna ramziy simvol, ishoralar yordamida an‘anaviy xotiralarni, millatimiz yashash tarzidagi tabiiylikni, do‘stona munosabatlarni anglashimiz mumkin. Shuningdek, idishlarni bezashda zoomorf naqshlarning berilishi zardo‘shiylik diniga ko‘ra ayrim hayvonot va qushlar olami bilan bog‘liq bo‘lib, antik va ilk o‘rta asrlar madaniyatining davom ettirilishidir. Ushbu belgi va naqshlar ichida qush siymosi alohida ajralib turadi. Kulol-hunarmandlar ushbu jonivorni “humo qushi”, “baxt qushi” deb ataydilar. Xalq orasida baxt qushining rostdan ham har bir insonda mavjulgiga va uni himoya qilishiga ishonch bor. Baxt qushini har bir usta o‘z tasavvuri doirasida aks ettiradi. Aksariyat hollarda tovus, bulbul, turna, laylak kabi baxt qushlari tasvirini uchratish mumkin. [6-187].



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th August, 2025

Bugungi kunda an'anaviylikni asrab-avaylab uni rivojlantirish yo'lida qator ustalar faoliyat olib bormoqdalar. Bular Sharofiddin Yusupov, Ismoil Komilov, Yo'ldoshali Polvonov, Alisher Nazirov, Baxtiyor Nazirov, Rustam Usmonov, Muzaffar Saidov, Odil Nizomov va boshqalar. Ularning ijodiy ishlarida qadimgi Rishton kulolchiligi an'analariga xos xususiyatlar saqlanib qolgan.

An'anaviy naqshlarda "bodomgul", "Sebarg", "Chorbarg", "gajakbarg", "islmiy barg", "anorgul" kabi keng tarqalgan naqsh turlari mavjud. An'anaviy naqsh turida har bir bezak va naqsh turi ramziy ma'noga ega. Kulolchilik bilan, asosan, tojik millatiga mansub xalq shug'ullanganligi bois, odatda bezak nomlari va atamalar tojikcha nomlangan. Masalan "Anorgul" da oilaning jamligi, farovonlik, serfarzandlik kabi ma'nolar mo'jassam. "Qumg'on" bu oilaning to'kinligi, purligi, hayotlik ramzidir. "Pichoq" esa oilaning qo'riqchisi, daxlsizligi ma'nosi bor, o'simliklar, barglar tiriklik, hayot ma'nolarini beradi.

Noan'anaviy uslubda ilgari mavjud bo'lmagan bezak turlari beriladi. Bugungi kunda Rishton noan'anaviy kulolchilik maktabining vakili sifatida Tohir Haydarovni aytish mumkin. Uning ijodiy ishlarida tarixni, adabiyotni, ma'naviyatni ko'rishimiz mumkin. Usta idishlarga mo'yqalam bilan emas igna yordamida naqsh beradi. Uning uy-muzeyiga tashrif buyurgan mehmonlar asarlarni tomosha qilish bilan birga yurtimiz tarixi, boy madaniyati hamda adabiyotidan boxabar holda qaytadi.

Zamonaviy kulolchilik. Bugungi davr talabi barcha sohalarda rivojlanish, kreativlik hamda zamonaviylikni talab qilmoqda. Kulolchilik ham bundan mustasno emas. Bugungi kunda o'zbek kulolchilik mahsulotlari nafaqat mamlakat ichida balki, tashqi dunyoda ham barchaning e'tiborini jalb qilmoqda. An'anaviy uslublar saqlanib qolgan holda unga zamonaviy tus berib Rishton kulolchiligini rivojlantirib kelayotgan kulollar hozirda ko'pchilikni tashkil etmoqda. Zamonaviy kulolchilikda Yevropa davlatlari hunarmandchiligi, Eron, Xitoy, Turkiya uslubidagi kulolchilik elementlari bilan birga milliylikni uyg'unlashtirgan uslubni ko'rishimiz mumkin. Zamonaviylikni idishlarning shaklida, turida, naqshlari va bezaklarida kuzatish mumkin. Hozirda Rishtonda "Koron" hamda "Mingboshi keramik" oilaviy korxonalari faoliyat yuritayotgan bo'lib, mazkur korxonalarda zamonaviy kulolchilik namunalarini turli xil ko'rinishlarini topish mumkin.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th August, 2025

Yurtimizga tashrif buyurayotgan mehmonlarning asosiy manzilgohi hisoblangan korxona muzeylariga kelgan turistlar turli zamonaviy sovgʻabop mahsulotlarni olib ketmoqdalar.

NATIJA. Bugungi kunda Rishton kulolchiligida qoʻl yordamida naqsh chizish usullarini umumiy tarzda murakkablik darajasiga qarab quyidagi turlarga boʻlishimiz mumkin.

1. Dekerativ yaʼni unikalni nashq chizish
2. Toʻplam mahsulotlar
3. Ommaviy idishlar uchun naqsh
4. Ndozali (shtampli) naqshlar
5. Nuqtali idishlar
6. Tilma.
7. Igna usuli.

1. Dekerativ – bu ziynat uchun qilinadigan, koʻrkamlilik, goʻzallik baxsh etadigan murakkab naqshli sopol buyumlar. Buni odatda “unikalni” deb ham atashadi. Bu nodir, yagona, maxsus maʼnolarini beradi. Boisi, bezak berilgan idishlar biri ikkinchisini takrorlamaydi. Bezak berish texnikasi murakkab, mayda naqsh va turli shakllar, chiziqlardan foydalaniladi. Ranglar ham xilma-xil va jimjimador. Bunday turdagi naqshlarni chizish bilan asosan tajribali ustalar yoki professional shogirdlar shugʻullanadi. Dekerativ sopol buyumlar bezak maqsadida, sovgʻa qilish uchun va muzeyga eksponat sifatida tayyorlanadi. Odatda murakkab naqshli idishlar bezaklari biri ikkinchisin takrorlamaydi. Chunki usta uni chizayotganida namunaviy dizayn boʻlmagani holda oʻz taʼsuroti yordamida chizadi.

2. Toʻplam mahsulotlar. Bu turdagi mahsulotlar ham asosan sovgʻa va bezak maqsadlarida ishlab chiqariladi. Barcha turdagi idishlar choynak-piyola, kosa tovoq, koʻzalarni bezashda barchasining bezak turlari bir xil boʻladi. Masalan piyolaga ishlangan anor elementi qolgan barcha idishlarda ham boʻladi. Ularning barchasi mujassamlilik hosil qiladi. Ilgari faqat bezak yoki sovgʻa sifatida ishlab chiqarilgan bunday toʻplam idishlardan bugungi kunda kundalik hayot uchun ham foydaniqlmoqda.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th August, 2025

3. Ommaviy idishlar uchun naqsh. Odatda kulolchilikda idishning qanday maqsadda ishlab chiqarilayotganiga ko'ra unga bezak beriladi. Masalan, bu turdagi mahsulotlar asosan to'y va turli tadbirlar va marosimlar uchun ishlab chiqariladi. Markaziy Osiyo xalqlarining urf-odatlaridan to'y marosimlari boshqa xalqlar madaniyatidan farqli ravishda marosimda ishtirok etuvchi mehmonlar soni ko'pchilikni tashkil etadi. Taxminan kamida 100 kishidan ko'proq. Kun bo'yi davom etadigan marosimda 2-3 maxal taom tortiladi. Bu jarayon o'z navbatida idish tovoqqa bo'lgan talabni oshiradi. Har bir to'y qiladigan oila albatta marosim uchun idish sotib oladi. Bunday idishlar soni ko'p ravishda sotib olinganligi uchun tabiiyki tannarxi arzon tushishi uchun kamxarj qilib ishlab chiqariladi. Aytaylik, undagi naqshlar soni kam va oddiy. Shuningdek bunday mahsulot ishlab chiqarishga nisbatan kam mehnat va vaqt sarf etiladi hamda yuqori malaka ham talab etmaydi. Bunday idishlarni odatda "harjaki paz" deb ataladi. Bu ishni odatda yosh hunarmandlar yoki o'z ishini tez bajaradigan shogirdlar bajarishad.

4. Ommaviy tarzda beriladigan naqshlarda samaradorlikni oshirish uchun andoza – shtamlardan ham foydalanilgan. XIX asr boshlarida shtamp vazifasini uncha kotta bo'lmagan qovoqlar bajargan. Keyinchalik sabzi va sholg'omlardan foydalanilgan. Sababi bu mahsulotlar egiluvchan bo'lgani uchun idish devorlariga yaxshi joylashgan hamda yaxshi iz qoldirgan. XIX asr o'rtalaridan esa andoza uchun yog'och va rezina ishlatilgan. Bular "Lavak" yoki "O'rama" deyilgan. [7-226]. Shuningdek, tovoqlarga gul rasmini tushirish uchun g'o'zayak o'simligidan ham foydalanilgan. Keyinchalik shtamplar takomillashib egiluvchan metallardan yasala boshladi. XX asrda shtamp yordamida "paxta gul", "atlas" kabi milliy ko'rinishdagi naqshlar sepish urfga aylangan. Bugungi kunda ayniqsa chinni mahsulotlarini bezashda paxta va atlas motivlari asosiy bezak turi vazifani bajarmoqda.

5. Nuqtali bezak. Bu bezak turida dastlab mahsulotga beriladigan bezak oddiy qora qalam yordamida chizib olinadi. Keyin turli ranglardan foydalanib rasm ustidan nuqtalar urib chiqiladi. Bu turdagi bezak turlari asosan Turkiya va Eron davlatlariga xos bo'lib, hozirgi kunda Rishton kulolchiligida ham keng foydalanilmoqda.

6. Tilmali naqsh. Odatdagi naqshlarda mahsulot birinchi olovda pishirilgandan keyin oq fon ustiga naqsh solinadi. Tilma naqshida aksincha. Birinchi pishiruvdan keyin idish bezak beriladigan qismi rangga botiriladi va shu rang ustidan uzunligi



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th August, 2025

5-8 sm bo‘lgan yog‘ochga o‘rnatilgan nozikroq, o‘tkirroq bo‘lgan mix yordamida tilib ya’ni o‘yib chiqiladi. Hozirda tilma nqashli sopol idishlarning ranggi asosan zangori va jiggarrangdir.

7. Ignali naqsh. Bu turdagi naqshda igna yoki ignaga o‘xshash jism bilan tilinadi vas hu joyiga rang beriladi. Igna usulida yozuvlar yoki portret va boshqa tasvirlarni tushirish mumkin.

XULOSA

Davlatning hunarmandchilikka, tadbirkorlikka bergan yuksak e’tibori sabab bugungi kunda mazkur sohalar jadal rivojlanmoqda. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Rishton kulolchilik buyumlarini aksariyatini bemalol san’at asari deya olamiz. Sababi bunday naqsh turlarini ishlash uchun insondan yuksak mahorat, ijodiy yondashuv talab qilinadi. An’anaviy sopol buyumlarda xalqning o‘tmishi, turmush tarzi, e’tiqodi, o‘ziga xos qarashlari aks ettirilgan. An’anaviy kulolchilikni asrab-avaylash tufayli hamda davlat tomonidan berilgan imtiyoz va e’tiborlar tufayli Rishton bugungi kunda o‘ziga xos sanoat zonasiga aylanib bormoqda. Bugun Rishton tumanining iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan o‘lishida avloddan avlodga meros bo‘lib kelayotgan kulolchilikning asrab avaylanishi beminnat xizmat qilmoqda.

MANBALAR VA ADABIYOTLAR

1. А. Ахмадшоев. А.Канаш. Фируза тоши ҳақидаги ақидалар/ Мозийдан садо. 2021. 1сон
2. R.Tadjiddinov. “Koron” xususiy kulolchilik korxonasi rahbari.
3. Xudaybergenov H. Xorazm kulolchiligi (Etnologik tadqiqot) “lesson-press”, Toshkent 2023, - B 92.
4. I.Komilov. Hunarmand uyushmasi a’zosi. Ustazoda kulol.
5. А.Азизов. А. Ўзбек халқининг ҳайвонот олами билан боғлиқ қарашлари. Фан. Тошкент 2024. -Б 187.
6. Е.М. Пещерева. Гончарное производство Средней Азии. Москва: 1959. Стр. 226.